

## SIFATLI TA'LIM TALABALAR NIGOHIDA

**Botirov Shonazar JDPU, Maktab menejmenti kafedirasi o'qtuvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada XXI asr ko'nikmalari, yaratilayotgan innovatsiyalar, dunyoda innovatsiyada yetakchi bo'lgan davlatlar va bu sohada talabalarga berilayotgan e'tibor hamda ularning o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar :** Innovatsiya, novatsiya, ixtirochi, ixtiro, texnologiya, malaka, moliya, transplantatsiya, donorlik, intellektual mulk, tashkilot, urbanizatsiya, sanoatlashtirish, pandemiya, xususiy mulk, portativ qurilma.

XXI asrning har bir kuni, soati, daqiqasida innovatsiya, novatsiya, turli xil g'oyalari, fikrlarga duch kelamiz. O'tgan XX asr ya'ni 100 yillik vaqt mobaynida ixtirolar, <sup>1</sup>rivojlanish uchun tashlangan qadamlar, olib borilgan kurashlar, harakatlarsiz bugungi asrimiz "XXI asr Axborot va Texnologiyalar asri", "Innovatsiyalar asri" kabi nomlar olmas edi.

Albatta XX asrda tashlangan har bir qadam bugungi asrimiz uchun poydevor vazifasini bajargan desak mubolag'a bo'lmaydi. XXI asr innovatsion texnologiyalar 100 yilligiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Dunyoning yirik, qudratli, har jihatdan rivojlangan mamlakatlari o'rtasida ilm-fan va texnologiyalar jabhasida ham beayov kurash bormoqda ilmga va bunda ilmga chanqoq talaba yoshlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki biror davlatni yuksak cho'qqilarga olib chiqish uchun avvalo, yoshlarni ilmli qilish ularga qulay shart sharoit yaratib berish kerak. Innovatsiyalar asirida dunyoning istalgan burchagidagi tengdoshimiz bilan fikr almashishimiz, o'zimizga kerakli bo'lgan tajribalarni o'rgana olishimiz, hattoki <sup>2</sup> yaratilayotgan kashfiyotlardan, yangiliklardan boxabar bo'lishimiz mumkin va bu biz talabalar uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunday imkoniyatlar yaratilgan davrda talabalarning ilm olishi, innovatsiya yaratishi, o'z vatanini rivojlantirish uchun o'z hissasini qo'shishiga hech qanday to'siq qolmaganini anglab yetgan shijoatli talabalar har sohada o'z iqtidorlarini ko'rsatishga, malakalarini, tajribalarini oshirish uchun tinmay qilayotgan harakatlaridan, o'qib izlanishlaridan ham XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda ularning ro'li naqadar muhim ekanini bilib olsak bo'ladi. Innovatsiya faqatgina qog'ozlarda qolib ketmasligi uchun katta

---

<sup>1</sup> " Innovation Economics " Robert D. Atkinson, Stephen J. Ezell

<sup>2</sup> <https://www.countrynavigator.com>  
<https://www.wipo.int>

investitsiya zarur albatta talaba yoshlarda bunday mablag' bo'lmasligi tabiiy hol. Shunday kashfiyotlar borki, ular xalq uchun juda zarur ammo, yetarli investitsiya yo'qligi sababli ular shunchaki chetda qolib ketadi yoki chet davlatdan investitsiya taklif qilinsa undan o'sha davlat foyda ko'radi. Bu talabaning o'z davlatida investitsiya kiritilib, yaratilsa aholi iqtisodiyoti, davlat qanchalar yuksalishini bir tasavvur qilib ko'ring.

“Dunyo pandemiyadan tiklanmoqchi ekan, biz bilamizki, innovatsiya biz duch kelayotgan umumiy muammolarni yengish va yaxshiroq kelajakni qurish uchun ajralmas hisoblanadi. Global innovatsiyalar indeksi siyosatchilar va biznesni rejalar tuzishda yo'naltiruvchi noyob vositadir biz pandemiyadan kuchliroq chiqishimizni ta'minlash uchun.” deydi Jahon intellektual mulk tashkiloti bosh direktori Daren Tang.

2019-yilda Bloomberg xalqaro tashkiloti tomonidan “Dunyoning innovatsiya bo'yicha peshqadam 10ta davlatlari” bo'yicha o'tkazilgan reytingda ham yuqorida aytib o'tilgan davlatlar o'rin olishgan edi. Ular bunday natijaga qanday qilib erishgan deb o'laysiz? E'tiborli jihati shundaki kuchli o'nlikda o'rin olgan davlatlarning barchasida ilmiy izlanishlar uchun g'aznadan juda katta miqdorda mablag' ajratiladi. AQSH ushbu maqsadda 476,5 mlrd dollar ( YIMning 2,7 foizi ) , Janubiy Koreya 73,1 mlrd dollar ( YIMning 4,3 foizi ) yillik mablag' sarflaydi. Singapur esa yillik byudjetining deyarli 20 foizini innovatsion rivojlanishga yo'naltiradi. Bu esa har bir yosh uchun qulay imkoniyat deganidir. Buyuk Britaniyalik bir talabaning insonlar hayotini o'ylab qilgan ixtirosi e'tiborimizni tortdi. 22 yoshli Lafboro universiteti talabasi Uill Brodvey deyarli barcha sharoitlarda foydalanish mumkin bo'lgan portativ qurilmani ixtiro qildi. Olimlarning fikricha, ushbu mobil sovutgichning foydali jihati zarur haroratda dori vostalarini saqlash imkoniyatidir. Uill yaratgan ixtirosi uchun rag'batlantirildi. Yosh kashfiyotchi butun dunyo bo'ylab ixtirochitalabalar o'zaro bellashadigan Dayson mukofotini qo'lga kiritdi. Mobil sovutgich 30 kun davomida Tselsiy bo'yicha 2dan 8gacha bo'lgan muqobil haroratni ko'tara oladi. Qurilma qashshoqlik va mojarolar botqog'idagi mamlakatlarda yanada kerakli bo'ladi. Texnologiya ammiak va suvni isitish natijasida ishlaydi. Natijada bug' hosil bo'ladi va asosiy yerga suyuqlikni yetkazib beradi. Uillning hisobi bo'yicha, mobil sovutgich yiliga 1,5 milliondan ortiq insonlar hayotini saqlab qolishi mumkin. U ixtirosiga o'zgartirish kiritish haqida aytib o'tdi:

“Transplantatsiya uchun donorlik qonlari, tana a'zolari bularning barchasi hali ham uzoq muddat sovuq haroratda sqlab bo'lmaydigan sovutilgan paketlar yordamida olib kelinadi. Mening sovutgichim bu va boshqa muammolarga yechim topadi”.

Yosh ixtirochining aytishicha, u o'z texnologiyasi ortidan foyda ko'rish niyatida emas. “Men doim insonlarga chinakamiga zarur bo'lgan buyumni yaratishni orzu qilganman. Endi menda bu imkon bor” deydi u.

Sizning uy-joyingizga, mol-u dunyoyingizga kimdir yoki nimadir xavf solishi mumkindir ammo, ilmingizga hech kim, hech narsa xavf solmaydi. Barchamizga ma'lumki, davlatlar tabiiy resurslaridan foydalanishadi. Yer yuzi bo'ylab resurslar birdek taqsimlanmagan. Bunday davlatlar asosan intellektual mulk yoki boshqa sohalar orqali foyda olishadi. Tabiiy ofatlar sababli vayron bo'lgan shunday davlatlarni tarix guvohi bo'lganki, unda na yetarli mablag', na aholining uy-joyi, na issiq ovqati bo'lmagan. Ular ilmi orqali o'zini tikladi, oyoqqa turdi va ba'zi davlatlardan o'zib ham ketib, dunyoning yetakchi davlatlari qatorida turibdi. Yoshlari ilmi bo'lgan davlat qudratli bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
2. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>